

Davlat soliq qo‘mitasi Raisining birinchi o‘rinbosari M.Mirzayevning 2022-yil aprel oyida bajarilgan ishlari

Byudjet daromadlari ijrosini ta‘minlash va qo‘shimcha manbalarni jalb etish

2022-yilning aprel uchun belgilangan **11,7 trln so‘m** prognoz ko‘rsatkichi **12,2 trln.so‘mga (104,6%)** bajarilib, byudjetga **535,0 mlrd so‘m** qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi (aprel oyi tushumlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **1,6 trln.so‘mga (114,9%)** o‘sdi).

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha 2022-yil apreli uchun belgilangan **2,5 trln so‘m** prognoz **2,9 trln so‘mga** yoki **113,8** foizga bajarildi.

Strategik rejalashtirish bo‘yicha

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi “Maishiy texnika mahsulotlarini majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 148-son qarori qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi “Dori vositalari va tibbiy buyumlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 149-son qarori qabul qilindi.

Alkogol, tamaki va pivo mahsulotlarni to‘liq raqamli markirovkalangan holda ishlab chiqarilishi ta‘minlanib, ishlab chiqaruvchi (51 ta alkogol, 2 ta tamaki va 16 ta pivo) va import qiluvchi (8 ta alkogol, 4 ta tamaki va 6 ta pivo) korxonalar tomonidan jami 1 137,1 mln. dona (615,0 mln. dona – tamaki, 334,5 mln dona – alkogol va 177,5 mln dona pivo) raqamli markirovkalangan mahsulotlar ishlab chiqarilishi nazoratga olindi.

Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo‘yicha

2022-yilning aprelda **jami 18 ta 2 016,8 mln** so‘mlik soliq nizosiga oid shikoyatlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi ta‘minlangan.

Xususan, bugungi kun holatida kelib tushgan shikoyatlar soliq to‘lovchi vakillari bilan hamkorlikda ko‘rib chiqilib, 1 ta 228,4 mln so‘mlik murojaatda soliq to‘lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 17 ta 1788,4 mln so‘mlik murojaat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi.